НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING INTELEKTUAL VA IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Ro‘zmatova Gulsora Qilichboy qizi Qo`qon davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha kata yoshdagi bolalarning intelektual salohiyati, ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish yo‘llari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi hamda zamonaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti,pedagog, intellektual qobilyat, ijodiy qobilyat, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, integratsiya,

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы развития интеллектуального потенциала и творческих способностей детей дошкольного возраста, технологии обучения, ориентированные на личность, их эффективность, а также правильное использование современных и инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова: учреждение дошкольного образования,педагог,интеллектуальные способности,творческие способности,образование, ориентированное на личность,современные технологии,инновационные технологии,интеграция.

Abstract: This article discusses the ways to develop the intellectual potential and creative abilities of preschool children, learner-centered teaching technologies and their effectiveness, as well as the proper use of modern and innovative educational technologies.

Key words: preschool education organization,pedagogue,intellectual ability,creativeability,learner-centered education,modern technologies,innovative technologies,integration.

Kirish. “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi”, — Shavkat Mirziyoyev.1 O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.2

Shavkat Mirziyoyevning fikricha, maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida faqat bilim olish bilan cheklanmasdan, shaxs sifatida shakllanishi va o'z imkoniyatlarini to'liq rivojlantirishlari kerak.

Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, bolalar uchun yangi pedagogik usullarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi. Mirziyoyev, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion metodlarni qo'llash bolalarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishini aytgan. Maktabgacha yoshda beriladigan ta’lim-tarbiya insonning butun

1 . Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

427 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

umri davomida farovon va baxtli hayot kechirishi uchun mustahkam asos bo‘ladi. Shu bilan birga, bu davrda ta’lim-tarbiya bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat olib boradigan har bir pedagog har bir bola uchun maktabgacha ta’lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ularga bolalarda ko‘nikmalarni rivojlantirish va xizmatlarini ko‘rsatish uchun keng imkoniyat hamda yordam berilishi kerak.

Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning bugungi sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida bir mavzu bo‘yicha bir kun ichida barcha faoliyat yo‘nalishlarini birlashtirgan holda faoliyatlar rejasini ishlab chiqishdek dolzarb vazifa qo‘yilgan.

Bolalar hayotining asosiy qismi maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tadi. Pedagog har kun va har soatni shunday tashkil etishi lozimki, bola yangi narsalarni kashf qilsin, ongi rivojlansin va shaxs sifatida shakllansin. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrof-olamni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integrasiya jarayonini ta’minlash maktabgacha ta’lim tizimidagi har bir pedagogning vazifasidir.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O'yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

Shuningdek, bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to‘planadigan ta’lim muhiti – shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv demakdir.

Asosiy qism: Taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.3

Barchamizga ma’lumki, tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiytarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o‘z imkoniyalarini namoyon qila olishi uchun qulaylik yarata olishi, madaniy muhitni to‘laligicha o‘zlashtirishi va o‘zining barcha quvvatlarini ro‘yobga chiqarishi lozim.

Bugungi kunga kelib bola shaxsiga rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida bolaning ehtiyojlari insoniy munosabatlar ob’yekti sifatida faollashmoqda. Bu o‘zaro kelishuv, bir-birini tushunish, hamkorlik hamda qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ob’yektiv, sub’yektiv munosabatlar yig‘indisini har bir insonga xos bo‘lgan mustaqil qadriyatlar sifatida aniqlashga intilamiz.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu pedagog e’tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, unda nafaqat intellektual qobiliyatlar va fuqarolik mas’uliyat hissini rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va

429A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O’qituvchi”. 1994

rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta’limda asosiy qadriyatning bunday e’tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Pedagog har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya – bu:

- tarbiyalanuvchi va pedagog o‘rtasidagi samimiy hamkorlik munosabatlarini;

- kun davomida amalga oshirilayotgan faoliyatdan tarbiyalanuvchi ham, pedagog

ham ijobiy emosional qoniqish olishni;

- muloqot va mehnat orqali ijobiy natijalarga erishish hissini;

- o‘ziga va do‘stlariga yordam berish ko‘nikmasi kabilarni rivojlantirish orqali namoyon bo‘ladi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda muammoli ta’lim turining ahamiyati kattadir. Pedagog tomonidan tarbiyalanuvchilarga mavzuga oid muammoli vaziyatlarni yaratish, mavzu doirasida muammoning qo‘yilishiga e’tibor qaratish, shuningdek, muammoning yechimini topish kabi vaziyatlarning yaratilishi samarali vosita hisoblanadi.

Maktabgcha ta’lim tashkilotlarida mazkur ta’lim turidan har qaysi pedagog samarali foydalana oladi. Ta’limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan qay tartibda foydalanish pedagogning yondashuviga, uning ijodkorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan foydalanilganida, tarbiyalanuvchida qiziqish, e’tibor berish, vaziyatni hal qilishga bo‘lgan intilish namoyon bo‘ladi.

Masalan, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida fevral oy mavzusi “G‘aroyib dunyo” etib belgilangan. Tayyorlov guruhida 1-hafta mavzusi “Qo‘shni mamlakatlar” mavzusi. Mavzudan kelib chiqqan holda tarbiyachi muammoli

vaziyatlarni yaratishi mumkin. Masalan, turli mamlakatlarning rasmlarini qo‘yib, tarbiyalanuvchilardan qaysi rasmdagi mamlakat bizning respublikamiz bilan qo‘shni ekanligini so‘rash. Tarbiyalanuvchi tomonidan javob olingach, “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?” deb so‘raladi. Tarbiyalanuvchi tomonidan berilgan javob tarbiyachi tomonidan tahlil etiladi. Tarbiyalanuvchi nima uchun bu mamlakatni tanladi? Qaysidir binosiga ko‘ra, insonlar tasvirlangan bo‘lsa, kiyimlariga qo‘ra, balki tabiat olamiga ko‘ra va h.o.

Shuningdek, qo‘shni mamlakatlarga xos musiqa eshittirish orqali ham tarbiyalanuvchilar uchun muammoli vaziyat yaratish va ular tomonidan berilgan javoblar albatta tahlil etilishiga e’tibor berish lozim.

Shaxsga yo`naltirilgan ta’lim maktabgacha ta;lim tashkilotlarida samarali va ijobiy tus olishi uchun MTT va oila hamkorligi ham kata o`rin egallaydi.Aytish joiz bo`lsa onalarning ham roli munosib tarizda bog`langan. Darvoqe, shu o‘rinda, Fitratning “Oila” asarida keltirilgan: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya’ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz-millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”4, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari quyidagilarda aks etadi:

✓ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik qo‘llab-quvvatlashni

amalga oshirish orqali bolalarni umumiy rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq

etish va ularning umumiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda pedagogik yordam

4 A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.

ko‘rsatishning mavjud darajasi va shart-sharoitlariga tayanish;

✓ bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga tayanilgan holda maktabgacha ta’lim-tarbiyani jarayonini tashkil etish, bu jarayonda bolalarning sub’yekt sifatida namoyon bo‘lishlarini ta’minlash, ularni har tomonlama rivojlantirishga erishish, umumiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni

ustuvor maqsadga aylantirish;

✓ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar birinchi navbatda tarbiyachining pedagogik qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlarini hisobga olish;

✓ bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni umumiy rivojlantirish jarayonining mazmunini bolaning qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlash va amalga oshirish.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiyalanuvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Mashg‘ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalar talablari asosida o‘quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda ta’lim samaradorligi, asosan tarbiyalanuvchining o‘qitish, tarbiyalash jarayonidagi o‘rni, tarbiyachining unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda bola pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunda butun ta’lim tizimi, shu jumladan, o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:

✓ pedagogik jarayonda shaxs ob’yekt emas, sub’yekt hisoblanadi;

✓ har bir bola qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;

gan ta’limda individual yondashuvning mohiyati
hg‘ulot tomonga harakatlanishni taqozo etadi.
ing mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni
omillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

hishda birinchi navbatda quyidagilar zarur

uvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat

qilish, unga ishonish. Tarbiyachida barcha ta’lim

honch bo‘lishi kerak;

ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh

im olishdan qoniqish va xursandchilikni olib kelishi

lashga yo`l qo`ymaslik,qoloqlikka va boshqa
g`u bermaslik,uning nafsoniyatiga tegmaslik;

rayonida ta’lim oluvchiga o`z qobilyatini ro`yobga
iyat yaratish va ko`maklashish.

tarbiyalanuvchig ema
a ,

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va

malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. “Bolalarning shaxsga yo‘naltirilgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan rivojlanish muhiti mustaqillikning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Agar bola o'z qiziqishlarini, ehtiyojlarini bemalol anglasa, o'z xohish-irodasini namoyon qilsa, uning faoliyati kuchli motivatsiyaga ega bo'ladi, u hissiy jihatdan to'yingan va psixologik jihatdan qulaydir”.5

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Shuni unutmaslik kerakki, kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, tarbiyachi va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. “Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. “Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta’limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi”.

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil

434Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.

etiladi. Maktabgacha davr – bu bolada motivatsiya, o‘z-o‘zini namoyon etish, barpo qilish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi.

Ta’lim strategiyasi maktabgacha ta’limning yuqori sifatini kafolatlashi kerak. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurishyasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uning keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta’minlash maqsadida muassasada ijobiy psixologik mikroklimat va sharoit yaratishni belgilaydi. Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvdir. To‘g‘ri yo‘sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo‘yishga tayyor bo‘ladi.

Xulosa: Xulosa qilganda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanib ishlayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar an’anaviy dastur bo‘yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo‘ladilar. Chunki bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda bolaga yaxlit shaxs sifatida qaraladi, unda tana, aql, hissiyot va ijodkorlik mujassamdir, shu bilan birga shaxsiy tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi ham inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet

4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.

5. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.

6. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001.

7. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.

8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.

9. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165

10. A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.

11. A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O’qituvchi”. 1994